


# CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI


## Asosiy tarkib




## Dastlabki ma'lumotlar

Viloyat bo'yicha 2020- yilning yanvar-sentabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi **5225,2** mlrd. so'mni tashkil etib, 2019- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan **0,1 %** ga oshdi. Shu jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi **407,4** mlrd. so'mni (**0,3 %** ga kamaydi), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi **4817,8** mlrd. so'mni (**0,1 %** ga oshdi), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi **712,8** mlrd. so'mni (**18,0 %** ga kamaydi) tashkil etdi.


## Tarkibiy qism, ulushlarda



## O'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda



## Uyushmagan savdo, mlrd. so'm






# HUDUDLAR KESIMIDA CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI, mlrd. so'm

## UMUMIY MA'LUMOT

Viloyat bo'yicha 2020- yilning yanvar-sentabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi **5 225,2** mlrd. so'mni tashkil etib, 2019- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan **0,1 %** ga oshdi.




Viloyatimiz chakana savdo tovar aylanmasida barcha tumanlarda Jizzax shahridan tashqari o'sish sur'atlari kuzatildi. Chakana savdo tovar aylanmasining tarkibiy qismlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga **92,2 %** va yirik korxonalar hissasiga **7,8 %** to'g'ri keldi.



## ENG YUQORI ULUSH


Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Jizzax shahri **25,7 %** ulush bilan **1345,9** mlrd. so'mni tashkil etdi.



## ENG QUIYI ULUSH

Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulushni Yangiobod tumani **1,2 %** ulush bilan **61,9** mlrd. so'mni tashkil etdi.

## YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASIDAGI ULUSHI, foizda



Yirik korxonalar	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari
2019- yil yanvar-sentabr	2019- yil yanvar-sentabr
2020- yil yanvar-sentabr	2020- yil yanvar-sentabr

Chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2020- yil yanvar-sentabr oylari yakuniga ko'ra, **4817,8** mlrd. so'mni tashkil etib, 2019- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan **0,1** % ga oshdi . Jami chakana savdo tovar aylanamasidagi ulushi esa **92,2** % ni tashkil etdi.

Bu ko'rsatkich hududlar kesimida taqqoslanganda, Sharof Rashidov (**99,8** %), Mirzacho'l (99,4), Arnasoy (**98,7** %), Yangiobod (**98,2** %), G'allaorol (**98,2** %), Zarbdor (**97,6** %) tumanlarida yuqori bo'lgan.






**CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR,  
KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK  
SUBYEKTLARINING HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI**

2019- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan viloyatning Jizzax shahridan tashqari barcha hududlarida chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari kuzatildi .

**Chakana savdo aylanmasining o'sish sur'atlari, foizda**





	Jami, mln. so'm	2019- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mln. so'm	2019- yil yanvar- sentabr oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mln. so'm	2019- yil yanvar- sentabr oylariga nisbatan, foizda
<b>Jizzax viloyati</b>	5225219,7	100,1	407450,6	99,7	4817769,1	100,1
<b>Jizzax sh.</b>	1345910,1	96,2	294237,3	100,5	1051672,8	95,1
<i>tumanlar:</i>						
Arnasoy	129192,6	101,6	1655,5	193,4	127537,1	101,0
Baxmal	746451,0	103,6	39711,2	82,5	706739,8	105,1
G'allaorol	408823,0	100,1	7468,7	114,5	401354,3	99,9
Sharof Rashidov	793106,1	102,1	1558,5	150,0	791547,6	102,0
Do'stlik	186456,0	100,2	5167,7	128,0	181288,3	99,6
Zomin	695594,7	101,0	23806,4	121,3	671788,3	100,4
Zarbdor	181253,7	100,4	4327,5	146,1	176926,2	99,6
Zafarobod	101025,5	102,0	4234,3	470,5	96791,2	98,6
Mirzacho'l	149675,0	100,2	965,8	34,5	148709,2	101,5
Paxtakor	220246,4	100,1	18786,4	74,9	201460,0	103,4
Forish	205621,6	101,0	4400,1	137,2	201221,5	100,4
Yangiobod	61864,0	100,8	1131,2	194,3	60732,8	99,9

# CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI TARKIBI

## Yirik korxonalar

Eng yuqori ulushga  
ega hududlar, foizda





Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning tovar aylanmasi hajmi, 2019- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan **0,3 %** ga kamaydi va **407,4** mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining **7,8 %** ulushiga to'g'ri keladi.




## Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari

Eng yuqori ulushga  
ega hududlar, foizda




Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra, **4 817,8** mlrd. so'mni tashkil etib, 2019- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan **0,1 %** ga oshdi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi **92,2 %** ni tashkil etdi.

**CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK  
BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING  
HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI (foizda)**




Tahliliy natijalarga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Sharof Rashidov (99,8 %), Mirzacho'l (99,4 %), Arnasoy (98,7 %), Yangiobod (98,2 %), G'allaorol (98,2 %), Forish (97,9 %) tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 7,8 % ni tashkil etib, eng katta ulush Jizzax shahri (21,9 %), Paxtakor (8,5 %), Baxmal (5,3 %), Zafarobod (4,2 %) va Zomin (3,4 %) tumanlarida kuzatildi.



## JIZZAX VILOYATI BO'YICHA AHOLI JON BOSHIGA NISBATAN CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI

2020- yil yanvar-sentabr oylari holatiga ko'ra o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi **3 752,1** ming so'm (2019- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan **2,0** % ga kamaydi), hududlar kesimida Arnasoy (**0,3** %), Baxmal (**1,4** %), Zafarobod (**0,2** %) o'sish sur'atlari kuzatildi, qolgan barcha hududlarda aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi ko'rsatkichlarida kamayish sur'atlari kuzatildi.

Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqorisi Jizzax shahri (**7 531,7** ming so'm), Baxmal (**4 748,4** ming so'm), Zomin (**4 220,8** ming so'm) va Sharof Rashidov (**3 564,5** ming so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.



	Hajm, ming so'm	2019- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan, % da
Jizzax viloyati	3752,1	98,0
Jizzax sh.	7531,7	94,4
<i>tumanlar:</i>		
Arnasoy	2802,4	100,3
Baxmal	4748,4	101,4
G'allaorol	2367,2	98,0
Sharof Rashidov	3564,5	99,3
Do'stlik	2833,7	98,5
Zomin	4220,8	98,9
Zarbdor	2090,6	97,8
Zafarobod	2016,5	100,2
Mirzacho'l	2878,4	98,1
Paxtakor	2944,5	98,3
Forish	2213,4	99,5
Yangiobod	2186,0	99,0

## UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI

### Asosiy tarkib, foizda




Dehqon bozorlari




Chorva (parranda) bozorlari


### O'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda



### Savdo aylanmasi hajmi va ulushi



### Eng yuqori ulushga ega hududlar



Viloyat bo'yicha 2020- yilning yanvar-sentabr oylarida uyushmagan savdo tovar aylanmasi **712,8** mlrd. so'mni tashkil etib, 2019- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan **18,0 %** ga kamaydi. Shu jumladan, 1- bozor va 1- bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarining sotish hajmi **263,8** mlrd. so'mni (o'zgarish sur'ati **23,7 %** ga kamaydi), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi **449,0** mlrd. so'mni tashkil etdi (o'zgarish sur'ati **14,3 %** ga kamaydi) .



**UYUSHMAGAN SAVDO AYLANMASIDA DEHQON\* VA  
CHORVA (PARRANDA) BOZORLARINING SAVDO  
AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI**

2020- yilning yanvar-sentabr oylarida dehqon va chorva (parranda) bozorlarida, uy xo'jaligida yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari, parrandalar va chorva mollari savdosi bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuv, dastlabki ma'lumotlarga ko'ra jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo aylanmasi hajmi dehqon bozorlarida **263,8** mlrd. so'mni, chorva (parranda) bozorlarida **449,0** mlrd. so'mni tashkil etdi.



\* Xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka tartibdagi tadbirkorlar (YTT)ni qo'shmagan holatda

\* Jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari, chorva (parranda) mollari

	Jami, mlrd. so'm	2019- yil yanvar- sentabr oylariga nisbatan, foizda	Dehqon bozorlari, mlrd. so'm	2019- yil yanvar- sentabr oylariga nisbatan, foizda	Chorva (parranda) bozorlari, mlrd. so'm	2019- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan, foizda
Jizzax viloyati	712,8	82,0	263,8	76,3	449,0	85,8
Jizzax sh.	115,9	75,8	115,9	74,3	0	0
<i>tumanlar:</i>						
Arnasoy	30,6	99,9	4,7	67,7	25,9	109,4
Baxmal	127,0	118,7	17,4	172,8	109,6	113,1
G'allaorol	76,9	70,3	23,9	54,6	53,0	80,8
Sharof Rashidov	77,2	59,7	0	0	77,2	59,7
Do'stlik	33,2	101,4	13,5	69,0	19,7	149,6
Zomin	105,5	72,7	42,5	75,3	63,0	71,1
Zarbdor	42,9	96,9	5,9	81,2	37,0	100
Zafarobod	0	0	0	0	0	0
Mirzacho'l	20,7	79,1	7,0	87,5	13,7	75,4
Paxtakor	35,6	111,0	13,0	82,5	22,6	138,8
Forish	32,5	76,6	18,8	94,8	13,7	60,7
Yahgiobod	14,8	86,3	1,2	60,2	13,6	89,9

## UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI: DEHQON BOZORLARI



2,9  
mlrd. so'm

Tuzlamalar



106,6  
mlrd. so'm

Yangi uzilgan qishloq  
xo'jaligi mahsulotlari



8,2  
mlrd. so'm

Qurtilgan qishloq  
xo'jaligi mahsulotlari  
(yong'oq, bodom, pista va  
boshqalarni qo'shgan holda)

44,3  
mlrd. so'm



Non va non  
mahsulotlari



17,6  
mlrd. so'm

Sut va sut  
mahsulotlari

8,1  
mlrd. so'm



Tuxum

34,4  
mlrd. so'm



Don mahsulotlari (mosh,  
loviya, no'xat, guruch va  
boshqalar)

9,7  
mlrd. so'm



Chorva mollari va  
parrandalar uchun har xil  
yem-hashaklar

5,9  
mlrd. so'm



Gullar, o'simlik va nihol  
ko'chatlari (manzarali va  
qishloq xo'jaligi)

2020- yilning yanvar-sentabr oylarida viloyatning Zafarobod va Sharof Rashidov tumanlaridan tashqari barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuv o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi **263,8** mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (**106,6** mlrd. so'm) to'g'ri keldi.

6,7  
mlrd. so'm



Ziravorlar

19,4  
mlrd. so'm



Tovuq go'shti

## UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI: CHORVA (PARRANDA) BOZORLARI

2020- yilning yanvar-sentabr oylarida viloyatning Jizzax shahri va Zafarobod tumanidan tashqari barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvi o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi **449,0** mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda har xil yoshdagi qora mollar savdosi **330,9** mlrd. so'mni, qo'y va echkilar **108,2** mlrd. so'mni, otlar **7,8** mlrd. so'mni, parrandalar **2,1** mlrd. so'mni tashkil etdi. Savdo aylanmasining to'liq tarkibi quyidagi ko'rsatkichda o'z aksini topgan:






**UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASIDA KICHIK  
BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HAJMI VA  
O‘SISH SUR‘ATLARI**

2020- yilning yanvar-sentabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi **1,3 %** ni tashkil etib, **67,6** mlrd. so‘mga yetdi va 2019- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan **28,6 %** ga kamaydi. Bunda jami savdo aylanmasining **100,0 %** ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

**Umumiy ovqatlanish korxonalarini savdo aylanmasining o‘shish sur‘atlari, foizda**




	Jami, mln. so‘m	2019- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mln. so‘m	2019- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan, foizda
Jizzax viloyati	67587,1	71,4	67587,1	71,4
Jizzax sh.	34147,1	69,4	34147,1	69,4
<i>tumanlar:</i>				
Arnasoy	457,8	80,0	457,8	80,0
Baxmal	1247,3	78,5	1247,3	78,5
G‘allaorol	4184,6	71,5	4184,6	71,5
Sh.Rashidov	11582,3	72,8	11582,3	72,8
Do‘stlik	2237,3	73,4	2237,3	73,4
Zomin	4664,4	72,1	4664,4	72,1
Zarbdor	1875,0	77,9	1875,0	77,9
Zafarobod	613,5	75,1	613,5	75,1
Mirzacho‘l	2368,6	77,5	2368,6	77,5
Paxtakor	2029,7	76,6	2029,7	76,6
Forish	1805,7	70,4	1805,7	70,4
Yangiobod	373,8	78,6	373,8	78,6

## ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

### Asosiy tarkib, foizda



Yirik korxonalar




Mikrofirma va kichik korxonalar

Viloyat bo'yicha 2020- yilning yanvar-sentabr oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi **1 367,0** mlrd. so'mni tashkil etib, 2019- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan **26,3** % ga kamaydi. Shu jumladan, yirik korxonalarining savdo tovar aylanmasi **284,3** mlrd. so'mni (**63,1** % ga kamaydi), kichik biznes subyektlarining savdo tovar aylanmasi **1 082,7** mlrd. so'mni (**0,2** % ga kamaydi) tashkil etdi.


### O'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda



### Savdo aylanmasi hajmi va ulushi



### Eng yuqori ulushga ega hududlar






**ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR  
VA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING HAJMI VA  
O'SISH SUR'ATLARI**

Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o'sish sur'atlariga ega yirik korxonalar Yangiobod (**166,7 %**), Baxmal ( **221,4 %**) va Forish (**113,0 %**) tumanlarida kuzatildi.


Ulgurji tovar aylanmasida nisbatan yuqori o'zgarish sur'atlari Zomin (**98,5 %**), Yangiobod (**100,8 %**), Forish (**100,1 %**), Baxmal ( **148,3 %**) tumanlarida qayd etildi.

**Ulgurji savdo aylanmasi o'sish sur'atlari, foizda**




	Jami, mlrd. so'm	2019- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mlrd. so'm	2019- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan, foizda	Mikrofirma va kichik korxonalar, mlrd. so'm	2019- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan, foizda
Jizzax viloyati	1367,0	73,7	284,3	36,9	1082,7	99,8
Jizzax sh.	760,7	71,3	150,4	33,0	610,3	99,8
<i>tumanlar:</i>						
Arnasoy	10,7	32,1	8,2	26,4	2,5	100,4
Baxmal	60,7	148,3	36,2	221,4	24,5	99,7
G'allaorol	33,4	94,7	0,7	30,9	32,7	99,3
Sh.Rashidov	98,0	78,6	10,3	28,0	87,7	99,8
Do'stlik	64,2	65,0	10,8	24,0	53,4	99,3
Zomin	147,1	98,5	4,4	69,0	142,7	99,8
Zarbdor	40,9	65,6	22,4	51,2	18,5	99,5
Zafarobod	22,6	49,2	12,5	34,9	10,1	99,6
Mirzacho'l	17,4	33,4	13,7	28,4	3,7	100,5
Paxtakor	27,1	43,4	14,2	28,7	12,9	99,0
Forish	76,8	100,1	0,3	113,0	76,5	100,1
Yangiobod	7,4	100,8	0,2	166,7	7,2	99,6

## YIRIK KORXONALAR VA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASIDAGI ULUSHI, foizda



Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik biznes subyektlariga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2020- yil yanvar- sentabr oylari yakuniga ko'ra, **1 082,7** mlrd. so'mni tashkil etib, 2019- yil yanvar- sentabr oylariga nisbatan (**0,2 %**) ga kamaydi. Jami ulgurji savdo tovar aylanamasidagi ulushi esa (**79,2 %**) ni tashkil etdi.

Bu ko'rsatkich hududlar kesimida taqqoslanganda, Forish (**99,6 %**), Yangiobod (**97,1 %**), G'allaorol (**97,8 %**), Zomin (**97,0 %**), Sharof Rashidov (**89,5 %**) tumanlarida yuqori bo'lgan. Eng past ulush esa Mirzacho'l (**21,1 %**), Arnasoy (**23,8 %**) tumanlariga to'g'ri keldi.



**Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi bo'limi**  
Tel.:72-221-51-26